

## IJTIMOY-MA'NAVIY MUHIT VA UNGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Ahrorova Shahlo O'rinoevna,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
Respublika MMM huzuridagi Ijtimoiy  
ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi

## THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT AND THE FACTORS INFLUENCING IT

Akhrorova, Shakhlo Urinboevna,  
Doctor of Philosophy, Senior Researcher  
Institute of Socio-Spiritual Research  
at the SEC of the Republic of Uzbekistan

## СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНАЯ СРЕДА И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ

Ахророва, Шахло Уринбоевна,  
Доктор философии,  
Старший научный сотрудник Института социально-духовных исследований при ЦДП Республики Узбекистан



Tel.(91) 198-85-25

e-mail:  
[Shaxlo.67@mail.ru](mailto:Shaxlo.67@mail.ru)

<https://orcid.org/0000-0002-8777-9162>

**Annotatsiya:** Bugungi globallashuv jamiyat ma'naviy muhiti jamiyatni boshqa sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi masalasini ishlab chiqish barcha yoshlarda bu muhim o'rın tutgani tufayli, jamiyat boshqaruvi ijtimoiy-ma'naviy muhitning huquqiy asoslarini barqaror tarbiyalashi lozim. Chunki, ijtimoiy muhiti zaiflashuviga olib keladigan ko'plab ma'lumotlarni saqlab qoladi. Maqola mana shu masalada so'z yuritiladi.

**Tayanch iboralar:** jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muhit, globallashuv, milliy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy muhit, muhit, axloq yoshlari, ijtimoiy madaniyat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar.

**Resume:** In today's era of globalization, the issue of the spiritual environment of society exerting its influence on other spheres of society's life is becoming increasingly relevant. Especially since this environment plays an important role in the education of young people, the management of society should strengthen the legal foundations of the socio-spiritual environment. Because many factors come to the surface that lead to a weakening of the social and spiritual environment.

**Basic phrases:** society, spirituality, environment, youth, factors, social culture, globalization, national values, public relations, social environment, morality, spiritual and moral values.

**Резюме:** В сегодняшнюю эпоху глобализации все более актуальным становится вопрос о том, что духовная среда общества оказывает свое влияние и на секундные сферы жизни общества. Особенно в связи с тем, что окружающая среда играет важнейшую роль в воспитании молодежи, руководству общества следует укреплять правовую основу социальной и духовной среды. Поэтому существует множество факторов, которые приводят к укреплению социальной и духовной среды. Вот о чем пойдет речь в государстве.

**Базовые фразы:** общество, духовность, экологическая среда, молодежь, факторы, социальная культура, глобализация, национальные ценности, общественные отношения, социальная среда, мораль, духовно-нравственные ценности.

Biz demokratik tamoyillarga asoslangan va erkinlik “me’yorlaridan chiqib ketgan” G’arbdan “ommayiy madaniyat” kirib kelmoqda, degan tushunchalarni tez-tez uchratib turamiz. Ammo, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda hamda yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ko‘plab rivojlanan va demokratik tamoyillarga tayanadigan davlatlar ham o‘z ta’lim tizimlaridan samarali foydalanadilar. Masalan, Amerika davlatida ham vatanparvarlik g‘oyalari ta’lim tizimida singdirilishi mustahkam asoslab qo‘yilgan. Aytaylik, mashg‘ulotlardan oldin davlat madhiyasini ijro etishda qaysidir o‘quvchi o‘rnidan turmasa yoki qo‘lini yuragi ustiga qo‘ymasa, u o‘sha kuniyoq o‘qishdan chetlatiladi [2]. Shuningdek, har bir Amerika maktabi sinflarida milliy bayroq osilgan, ko‘p hollarda unga sodiqlik qasami qabul qilinadi [4,153].

Xitoyda esa vatanparvarlik mafkurasi nafaqat yurti, balki shahri, provinsiyasi, oilasi, hatto o‘z uyi o‘chog‘ini, shuningdek xitoy tilini sevish va faxrlanish asosiga qurilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy pedagogikasining asosiy vazifasi hisoblanadi va bu ijtimoiy-ma’naviy muhit sog‘lomligining garovi sanaladi. Bunda ular Vatan tarixi, milliy bayramlar, milliy qadriyatlarni o‘qitish, musiqa darsida Vatan haqidagi qo‘shiqlarni o‘rgatishni asos qilib olishgan. "Targ‘ibot-tashviqot jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan, xususan, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy, shuningdek, talabalar hamda o‘qituvchilar o‘rtasidagi ta’limga oid munosabatlar internet, ya’ni ijtimoiy tarmoq orqali amalga oshadi. Izohlarning anonim bo‘lishi esa ta’qiqqa olingan" [4,73-75]. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy-ma’naviy muhitda milliy asos, vatanparvarlik tuyg‘ularining ustuvorligi muhimdir.

Jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit dogmatik emas, u dinamik tarzda o‘zgarib boradi hamda jamiyatdagi alohida fuqarolarning ma’naviy o‘sib borishi bilan ijtimoiy-ma’naviy muhit dialektik tarzda muvofiqlashib, takomillashib boradi. Boshqacha aytganda, muayyan ma’naviy muhit, makon alohida shaxsning ma’naviy takomillashuviga ta’sir ko‘rsatgani kabi, shaxs ma’naviyati ham ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar va harakatlar orqali ushbu makonga ta’sir o’tkazadi,

ya’ni, shaxs ma’naviy kamoloti uni takomillashtirishga olib boradi. A.Mavrulovning quyidagi ifodasida ham ana shunday dialektik bog‘lanishni ko‘rish mumkin: “nafs balosi insonni ko‘klarga ko‘taradi”, ayni paytda bu hodisa ijtimoiylashadi va “jamiyatni poklantiradi”.[3]

Umuman olganda ma’naviy borliq quyidagi o‘ziga xos jihatlar bilan ijtimoiy muhitga ta’sir ko‘rsatadi:

- ma’naviyat jamiyatdagi, alohida shaxslar, ijtimoiy guruh va jamoalar o‘rtasidagi jamiki ijtimoiy aloqa va munosabatlarni o‘z me’yorlari o‘lchoviga solib, tartiblashtiradi;

- ijodiy va hayotiy ehtiyojlarni ma’naviy jarayonlar sifatida uyg‘unlashadir;

- ma’naviyat o‘z tarkibida o‘ziga xos qadriyatlар, ideallarni, g‘oya, mafkura, maqsad va intilishlarni, shuningdek, urchodat, an‘analarni muvofiqlashtirgan holda mujassam qiladi;

- madaniyat, ma’rifat bilan bog‘liq mavjudlik, axloqiy me’yorlar, diniy ta’limot va tarbiya bilan bog‘liq barcha jarayonlarni qamraydi va natijalarini namoyon qiladi;

- jamiyatning barcha sohalarida insonning ma’naviy faoliyati sifatida ma’naviyat ishtirok etadi, boshqa sohalar bilan uyg‘unlashadi va ularning ma’naviy mohiyatini namoyon qiladi;

- ma’naviy mavjudlik alohida insonlarning axloqiy me’yorlari, bilim va qarashlari, histuyg‘ulari ko‘rinishida uning ma’naviy qiyofasini shakllantiradi;

- insonning ma’naviy rivoji va jamiyat taraqqiyotida tegishli tartibotni hamda ma’naviy me’yorlarni belgilab beradi, ma’lum bir tamoyillar yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy ma’naviy muhiti hududiga ko‘ra bir qancha tarkiblarga bo‘lib o‘rganilib tahlil etilishi mumkin. Masalan, oilaga xos ijtimoiy-ma’naviy muhit, mahalladagi ijtimoiy-ma’naviy muhit, tumandagi ijtimoiy-ma’naviy muhit yoki ma’lum bir tashkilot-muassasadagi ijtimoiy-ma’naviy muhit. Salbiy illatlar, voqeotlar avj olgan obyektda ijtimoiy-ma’naviy nosog‘lom muhit yuzaga kelgan, degan ta’riflarni ko‘p uchratamiz. Demak, muayyan obyektda ma’naviy birlik asosini yaratish, shu orqali bu yerda tinchlik-xotirjamlik, xayru-barakani ta’minalash, o‘zaro munosabatlarning milliy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash,

obyekt manfaatlari va undagi jamiki ijtimoiy munosabatlar uyg'unligini ta'minlash, bu yerdagi voqeot, qarashlar, maqsadlar va ne'matlarning ma'naviy qadriyatlashuvi orqali mazkur obyekt manfaatlari bilan mutanosiblikni ta'minlash, ma'naviy qadriyatlarning salmog'ini oshirish... kabi chora va harakatlar orqali ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Bir qancha omillar borki, ular ijtimoiy-ma'naviy muhitga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday omillar sifatida Prezident Sh.Mirziyoyev 2023-yil, 22-dekabr kuni Ma'naviyat va ma'rifikat kengashi tomonidan o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda so'zlagan nutqida mana shunday omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etib o'tdi:

birinchidan, yoshlarni yot g'oya va noplolar kimsalar ta'siridan asrashda xalq (fuqarolar) va davlat birligi;

ikkinchidan, hududlarda madaniy-ma'rifiy ishlarning darajasini hududiy rahbarlar ishini baholashning asosiy mezonlaridan biriga aylantirish;

uchinchidan, madaniyat sohasini, xususan, teatr san'atini rivojlantirish vazifalarining milliy ma'naviyatga ta'sirchanlik choralarini oshirish;

to'rtinchidan, madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini oshirish va ularagini to'garaklarga yanada ko'proq yoshlarni qamrab olish;

beshinchidan, baxshichilik san'ati hamda maqom san'atini yanada rivojlantirish;

oltinchi o'rinda, milliy raqs, milliy musiqa san'atini rivojlantirish;

yettinchi o'rinda, muzeylarimiz faoliyatini kengaytirish, o'zbek madaniy diplomatiyasining xalqaro maydondagi rivojini ta'minlash;

sakkizinchidan, milliy kino sohasini yuqori pog'onaga olib chiqish;

to'qqizinchidan, amaliy va tasviriy san'at sohasi rivojiga e'tirborni qaratish.

Shu bilan birga, milliy tilimiz nufuzini ko'tarish, milliy kitobxonlik madaniyatini oshirish, fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish kabi masalalar ham jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda muhim omil sifatida ta'kidlab o'tdi [6]. Albatta, bu masalalar bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy sharoitda jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratishda faol ijtimoiy subyekt sifatida quyidagilarni sanash mumkin: Mahalla

instituti. Oila. Diniy e'tiqod omili. Millatga xos udum, an'analar, ko'nikmalar, urf-odatlar. Milliy qadriyatlar.

Demak, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda fuqarolarning o'rtasidagi ijtimoiy aloqa va munosabatlar, hatti-harakatlarning ma'naviy xususiyatlar bilan bog'liq tarzda tizimli va tegishli tartibda namoyon bo'lishi, shuningdek, mazkur tizim holatiga oid shart-sharoitlarning tizimli majmuijtimoiy-ma'naviy muhit deyiladi.

Muxtasar qilsak:

1. Insonlarning ma'naviy qiyofasi subyekt tarzida, jamiyat va uning ichki tizimlari tarkibidagi boshqaruv siyosati obyekt tarzida ijtimoiy-ma'naviy muhitning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

2. Ma'naviy muhit ijtimoiy়lashuvi uchun u harakatga kelishi lozim, shundan keyin ijtimoiy-ma'naviy muhit yuzaga keladi.

3. San'at va madaniyat, ta'lim va tarbiya, fan, adabiyot va falsafa kabilarda ma'naviy jarayonlar sodir etiladi, bular o'z navbatida ijtimoiy-ma'naviy muhitning qay tarzda shakllanishiga vositachi sifatida xizmat ko'rsatadi.

4. Ma'naviy muhitga oid muammolar asosan inson va jamiyatga xos bo'lgan ikki xil tabiatlilik, ya'ni moddiylik va ma'naviyatning ikki tomonlamaliligidan kelib chiqadi.

5. Ijtimoiy-ma'naviy muhit o'zgaruvchandir va bu o'zgaruvchanlik dinamik tarzda amalga oshadi. Ya'ni, subyektdagi sifat xususiyatlarining o'sishi obyektda ham ko'tarilishga olib keladi va aksincha.

6. Inson yashash jarayonida hayotiy ehtiyojlarini shakllantiradi, uni mukammal qondirish choralarini ko'rsatadi, shu bilan muvofiq tarzda ijtimoiy va ma'naviy jarayonlarda o'zini takror ishlab chiqaradi. Albatta, bunda jamiyatga xos boshqaruv ham o'z hayotini, yashash tarzini o'zgartirishga, hayotiy ehtiyojlarini mukammalroq qondirishga intilar ekan, o'z-o'zini ham ijtimoiy, ham ma'naviy jihatdan takror ishlab chiqaradi va bunda jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy siyosat o'z ta'sirini ko'rsatadi.

7. Jamiyatdagи barcha soha va yo'naliishlarga muayyan ijtimoiy-ma'naviy muhit dinamik tarzda ta'sir ko'rsatadi, demak, ijtimoiy ma'naviy muhit sayozlashsa, jamiyatda ham parokandalik yuzaga keladi.

8. Bulardan kelib chiqadiki, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni yuzaga keltirish, uning va jamiyat barqarorligini muvofiqlashtirish masalasi har qanday boshqaruv siyosati oldida turgan muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

Demak, ijtimoiy-ma’naviy muhit hodisasini o‘rganib borish, ham ilmiy, ham amaliy jihatdan tahlil qilish, mazkur muhitning ijobiy tomonlarini qo‘llab-quvvatlash barobarida, jamiyatni salbiy tomonga yetaklaydigan jihatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalar sanaladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ahrorova Shahlo. Ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurolimizdir. “Ma'naviyat” nashr. T. - 2022y.
2. Balyukov N.N., Ivanichkin Yu.A. Патриотизм по американски. [Elektron resurs].

URL: <http://archive.redstar.ru/index.php/mohov/item/14445-patriotizm-po-amerikanski> (ko‘rilgan sana: 19.06.2018.)

3. Mavrusov Abdughalil. <https://daryo.uz/>. 10.02.17y. (oligan sana 22.01.2024.)

4. Soljenitsin A. I. Россия в обвале. М. : Русский путь, 2006. S.153.

5. С.Ильин, Коврижник О. А. Об отзывах патриотического воспитания студентов в Китае // Социально-политические и культурные проблемы современности: сборник научных трудов по материалам I Международной научно-практической конференции 31 мая 2016 г. Нижний Новгород: НОО «Профессиональная наука», 2016. С. 73–75.

6.“Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 267(1056)-son, 2023 yil, 23-dekabr.



TAMADDUN NURI